

## TURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISHDA KLASTER MEXANIZMIDAN FOYDALANISH

*Qoraqalpoq davlat universiteti magistranti*

*Karjaubaeva Roza Saodatdin qizi*

*karjaubaevan@gmail.com +998907001702*

Búgingi kunda respublikamizda eng muhim iqtisodiy muammolarni hal qilishga hissa qo‘shadigan va hududlarning iqtisodiy o‘sishi va rivojlanishini ta‘minlaydigan tarmoqlararo klaster shakllanishi mumkin bo‘lgan yirik raqobatbardosh ijtimoiy turizm tuzilmalarini yaratish dolzarb muammo hisoblanadi. Muayyan hududning raqobatbardoshligi tadbirkorlik faoliyatining ustuvor turlari asosida ijtimoiy turizm klasterlarini shakllantirish va mavjud turizm resurslardan optimal foydalanishga erishish imkonini beradi. Bu esa turistik hududni kengaytiradi va hududlarda iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy-demografik barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qiladi.

Kompleks turistik xizmatlar hamda turistning va ekskursantning ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun zarur bo‘lgan boshqa qo‘shimcha xizmatlar ko‘rsatuvchi mustaqil tashkilotlar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar majmui turistik klasterdir.

Turistik klasterlar kompleks turistik xizmatlar ko‘rsatish, turistik faoliyatning raqobatbardoshligi va sifatini oshirish maqsadida turistik mahsulotni shakllantiradi, targ‘ib etadi va realizatsiya qiladi.

Ko‘plab mamlakatlarda klaster iqtisodiyoti rivojining keng tajribasi mavjud bo‘lib, turli adabiyotlarda klasterning ta‘riflari keltiriladi. Klaster nazariyasi tashabbuskori bo‘lgan Porterning (2001) fikriga ko‘ra, klaster muayyan sohada umumiy va tashqi aloqalar bilan birbiriga bog‘liq bo‘lgan kompaniyalar (yetkazib beruvchilar, ishlab chiqaruvchilar va boshqalar) va ularning asosiy faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan muassasalar (ta‘lim muassasalari, davlat boshqaruvi organlari, infratuzilma)ning geografik yaqin guruhidir.[2]

Shkejevning (2012) fikriga ko‘ra, klasterli integratsiya maqsadlari shakllanishining alohida yo‘nalishlarini ajratish imkonini beradi, biroq ushbu tadqiqotlarda klasterli tarkibiy tuzilish integratsiyasining maqsadlar prizmasidagi mohiyati va uning shakllanish ketma-ketligi yetarli darajada o‘rganilmagan[3].

Turistik klasterlarga berilgan tavsiyalarga asoslanib , ular faoliyatining quyidagi tamoyillarini alohida ta’kidlash mumkin:

- 1) xo‘jalik yurituvchi birliklarning mintaqaviy konsentratsiyasi;
- 2) qo‘shilgan ta’minot zanjirida ishtirok etuvchi klaster a’zolarining chuqur texnologik kooperatsiyasi;
- 3) kooperatsiya va sheriklikning to‘liqligi;
- 4) innovatsion jarayonning o‘ziga xosligi;
- 5) davlat va xususiy biznesning sherikligi.[4]

Prezidentimiz tomonidan 2024-yil 12-yanvarda «O‘zbekiston Respublikasida ekologik turizmni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 21-sonli Prezident qarori qabul qilindi. Qarorga ko‘ra, davlat qo‘rg‘onxonalari bufer zonalari , milliy tabiat bog‘lari , pitomniklar (qo‘rg‘onxonaga aylantirilgan zonalar bundan mustasno), o‘rmon va o‘rmon-ov xo‘jaliklari , tog‘li va cho‘l hududlaridagi suv obyektlarining suvni muhofaza qilish zonalarida joylashgan yer uchastkalarini kompleks turizm xizmatlarini yo‘lga qo‘ygan holda turistik klasterlar tashkil etish uchun tadbirkorlarga ajratiladi.[1]

🔍 Ekologik hududlarda joylashgan yer uchastkalari turistik klasterlar tashkil etish uchun tadbirkor sub’ektlarga 10 yil muddatga ijaraga beriladi, keyinchalik foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ladi. 2024-yil 1-sentabrgacha «Tabiatga sayohat» elektron platformasi va uning mobil ilovasi ishga tushiriladi.

2027-yil 1-yanvarga qadar:

🏠 cho‘l hududlarida rekreatsion turistik xizmatlarni ko‘rsatuvchi kurort zonalari (toifali mehmonxonalar, SPA-mehmonxonalar, sanatoriylar va pansionatlar) tashkil etgan tadbirkorlar 3 yil mobaynida yuridik shaxslardan olinadigan nafaqa solinadigan va erkin ishtirok etadigan nafaqa solinadigan

bo'lsa, belgilangan nafaqa solinadigan stavkalarga nisbatan 50 foizga kattirilmagan nafaqa solinadigan bo'lsa;

◆ cho'l hududlarida tematik xibonlar tashkil etilgan shaxslar yuridik shaxslardan olinadigan nafaqa solinadigan va erkin ishtirok etadigan bo'lsa , belgilangan nafaqa solinadigan bo'lsa , belgilangan 50 foizga kattirilmagan nafaqa solinadigan bo'lsa.

Shuningdek, to'siqsiz turizm infratuzilmasini rivojlantirish va rag'batlantirish ko'rsatkichlari belgilandi. Joriy yilning 1-apreldan 2026-yilning 1-aprelegacha mehmonxona xizmatlarini ko'rsatuvchi tadbirkorlarga imkoniyati cheklanganlar uchun jihozlangan har bir maxsus xona uchun subsidiya ajratiladi.

Mo'ynoq va Zomin aeroportlariga amalga oshiriluvchi parvozlar uchun 23 yoshgacha bo'lgan yoshlar, pensiya va nafaqa oluvchilar, nogironligi bo'lganlarga aviachiptalarni sotish 50% imtiyozli ta'riflar bo'yicha amalga oshiriladi.[5]

O'tgan yil 30-avgust kuni Buxoro viloyatining Romitan tumanida "Bukhara Desert Oasis & Spa" noyob sayyohlik klasteri ochildi. Tematik majmua o'ziga xos sharqona voha bo'lib, cho'l zonasida joylashgan. Majmuaning umumiy maydoni 10 gektarni tashkil etadi. Bundan tashqari, 30 gektarga tutash hududda bosqichma-bosqich eko- va agroparklar tashkil etilmoqda.

O'zbekistonda mavjud turistik imkoniyatlar hamda turistik infratuzilmalardan foydalangan holda turizm xizmatlarini klasterlashtirish, klasterlashtirish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish, klasterlashtirishda davlatning bevosita o'rnini belgilash, klaster a'zolarining bir geografik yaqin bo'lgan sharoitda faoliyat yuritishigaq imkoniyat yaratish kerakligi bilan belgilanadi. "Klasterlash" jarayonini turizm sohasida qo'llashning nazariy va amaliy usullarini o'rganish, jahon tajribasidan kelib chiqqan holda har bir turizm turlariga mos ravishda yaratilgan turistik klasterlarni o'zimizda mavjud bo'lgan turistik imkoniyatlardan foydalangan holda moslashtirish bizning asosiy maqsadimiz hisoblanadi.

**ADABIYOTLAR.**

1. «O‘zbekiston Respublikasida ekologik turizmni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 21-sonli Prezident qarori 12.01.2024 PQ-21
2. Porter M. (2001) Competition Moscow: Publishing House Williams. -P. 207
3. Шкежев, Р.Х. (2012) Стратегическое управление взаимодействием субъектов Интеграционных структур региональной экономики / Р. Х. Шкежев // Региональная Экономика и управление: электронный научный журнал. № 2 (30)
4. К.Т.Каленов Turistik klasterler. / Oqiw qollanba./ – NOKIS: “ILIM NUR”, 2024 jil – 274 b.
5. Каленов, К. (2021). АГРАР СОҲАДА СУҒУРТА ХИЗМАТЛАРИНИ ЙУЛГА ҚУЙИШНИНГ ЖАҲОН ТАЖРИБАСИДАН ФОЙДАЛАНИШ. *Iqtisodiyot va ta’lim*, (4), 343-347.
6. Tursynbaevich, A. R., Tlegenovich, K. K., & Kairatovich, K. Z. (2023). CHINA URGANISH MARKET AND EXPORT KILINADIGAN VILLAGE HOUSEHOLD PRODUCTS INSURANCE PRODUCTS. *JOURNAL OF ECONOMY, TOURISM AND SERVICE*, 2(5), 1-7.
7. Каленов, К. Т. (2014). ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ НОВЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В ОБЛАСТИ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОГО СТРАХОВАНИЯ. *The Way of Science*, 51.
8. Kalenov, K., & Utemuratova, R. (2024). Information necessary for the distribution of liability between partners in export cargo logistics services insurance the Republic of Uzbekistan. *Modern Science and Research*, 3(1).
9. Tlegenovich, K. K., Istamovich, R. N., & Baxadirovna, U. R. (2024). Modern Trends and Factors of Financial Development of the Agricultural Sector in the Republic of Karakalpakstan, Taking Into Account Agricultural Insurance. *Information Horizons: American Journal of Library and Information Science Innovation (2993-2777)*, 2(1), 97-101.

10. Каленов, К. Т., & Калимбетов, Б. И. (2022). Экономическое развитие аграрного сектора сложно экологических зон: на примере республики Каракалпакстан. In *Экономическое развитие России: точка баланса в мировой экосистеме и инфраструктура будущего* (pp. 123-129).
11. Каленов, К. (2021). Использование мировой практики отключения страховых услуг в аграрной сфере. *Экономика И Образование*, (4), 343-347.
12. Каленов, К. Т. (2021). Тенденции и факторы финансового развития аграрного сектора с учетом агрострахования в республике Каракалпакстан.
13. Kalenov, K. T., Kalbaeva, I. E., & Koblanov, Z. K. (2014). PROSPECTS FOR LIVESTOCK INSURANCE IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *The Way of Science*, 16.
14. Каленов, К. Т. АЎЫЛ ХОЖАЛЫҒЫ КӘРХАНАЛАРЫНДА ҚАМСЫЗЛАНДЫРЫҰ ХЫЗМЕТЛЕРИН КЛАССИФИКАЦИЯЛАҰ ТИЙКАРЫНДА ЖОЛҒА ҚОЙЫҰ. МИНИСТЕРСТВО ВЫСШЕГО И СРЕДНЕГО СПЕЦИАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН КАРАКАЛПАКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ БЕРДАХА, 184.
15. Адильчаев, Р. Т., Каленов, К. Т., & Узаков, Р. М. (2021). ТЕНДЕНЦИИ И ФАКТОРЫ ФИНАНСОВОГО РАЗВИТИЯ АГРАРНОГО СЕКТОРА С УЧЕТОМ АГРОСТРАХОВАНИЯ В РЕСПУБЛИКЕ КАРАКАЛПАКСТАН. In *Управление в XXI веке-проблемы и перспективы* (pp. 302-310).
16. Каленов, К., & Юлдашева, А. (2024). ТУРИЗМНИ ДОЙИМИЙ РИВОЖЛАНТИРИШДА ТРАНСПОРТ СОҲАСИНИНГ ИСТИҚБОЛЛАРИ. *PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS*, 3(30), 15-18.
17. Kalenov, K., & Ganieva, E. (2024). Respublikamizda turizm sohasini doyimiy rivojlantirishda transport xizmatini takomillashtirish. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 2(2), 333-337.
18. Kalenov, K., & Utemuratova, R. (2023). QISHLOQ XO ‘JALIGI KORXONALARIDA XATARLARINI O ‘ZARO SUG ‘URTALASH

JAMIYATLARI TASHKIL ETISH ORQALI SUG 'URTALASHNING XORIJ  
TAJRIBASIDAN FOYDALANISH. *Евразийский журнал академических  
исследований*, 3(3 Part 2), 100-105.